

NUTQ TUZILMALARINING SHAKLLANISHIDA MEDIA TA'SIRINING ROLINI BAHOLASH

Davlatova Hulkaroy Uktamovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalardagi nutq tuzilmalarining shakllanishida media ta'sirining rolini baholash borasida fikr yuritiladi. Televizion kontent turlari va sonining o'sishi natijasida ommaviy axborot vositalarining zamonaviy turlari, ularning ko'lamining kengayib borishi mediamatnlar hajmining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, bugungi kunda O'zbekistonda 50 dan ziyod televizion kanallar mavjud bo'lib, ularning ko'p qismi davlatga qarashli, xususiy va hududiy hisoblanadi. Nutq madaniyatining turlari bir nechta olimlar tomonidan turli guruhlar bo'yicha tavsiflandi, ulardan biri A. Safyanova tomonidan tuzilgan variantini keltirilgan.

Kalit so'zlar: bolalar, nutq, media, televizor, radio, A.Safyanova, axborot-kommunikatsiya, til tizimi, stilistik mezonlar

KIRISH. XXI asrning boshlang'ich davrigacha bo'lgan vaqt mobaynida axborot-kommunikatsiya vositalarining tez sur'atlarda taraqqiy etishi bilan ajralib turadi, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davom etayotgan edi. Barchamizga ma'lumki, an'anaviy axborot vositalari: bosma nashrlar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarning o'sishi, ayniqsa global Internet tarmog'ining shakllanishi va jahon miqyosida keng yoyilishi natijasida yagona media makoni, ko'p qatlamli va bir nechta yo'nalishli axborot oqimlari virtual kommunikatsiya muhitining vujudga kelishi kuzatildi. Keltirilgan o'zgarishlar nutq ishlab chiqarish va uning ijtimoiy muloqotagi yoyilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatdi. Til birliklarining qo'llanilish shakli, stilistik mezonlari hamda umuman



til tizimining tuzilishi va dinamikasi yangi kommunikativ ehtiyojlar asosida sezilarli darajada o'zgardi.

Televizion kontent turlari va sonining o'sishi natijasida ommaviy axborot vositalarining zamonaviy turlari, ularning ko'laminin g kengayib borishi mediamatnlar hajminin g ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, bugungi kunda O'zbekistonda 50 dan ziyod televizion kanallar mavjud bo'lib, ularning ko'p qismi davlatga qarashli, xususiy va hududiy hisoblanadi. Ularning faoliyati turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan bo'lib, bir qancha guruhlarga ajratiladi. Masalan, umummilliy ya'ni davlat va ijtimoiy-ma'rifiy, hududiy (viloyat), xususiy va ixtisoslashgan kanallarga bo'linadi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda AQShdagi televizion kanallar soni 75 taga yetgan bo'lib, ularning aksariyati tor yo'nalishga ixtisoslashgan kabi turlarga bo'linadi. Masalan, yangiliklar (CNN – *Cable News Network*), ko'ngilochar dasturlar (MTV), sport (Eurosport), ta'lim (Discovery Channel), musiqa va boshqa turli mavzularga bag'ishlangan kanallar mavjudki, bunday xilma-xillik nafaqat kontent turlarining ko'payishiga, balki maqsadli auditoriyalarning differensial tarzda shakllanishiga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayon, yangi radiostansiyalar va bosma nashrlarning ya'ni gazeta va jurnallarining tashkil etilishi, ularning turli yoshdagi va ijtimoiy-guruhiy auditoriyalarga mo'ljallanishi bilan yanada murakkablashib bormoqda.

ASOSIY QISM. Shu boisdan, raqamli muloqot vositalarining, ayniqsa internet tarmog'i orqali olib borilayotgan kommunikatsiyalarning jadallashuvi mediamatnlarning ko'payishida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Texnologiyaning jadal suratlarda rivojlanishi natijasida, bosma nashrlarning onlayn versiyalarga o'tishi, yangi elektron nashrlarning yuzaga kelishi, ularning tezkor tarqalishi global axborot makonida nutqiy faoliyat turlarining kengayishiga olib kelmoqda. Ushbu global axboriy muhit tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida tadqiqot obyektiga aylangan, u o'ziga xos lingvistik va kommunikativ mezonlariga ega soha sifatida baholanmoqda.

Ayniqsa bolalar tilining shakllanishida bunday mediamatnlar muhim rol o'ynaydi. Ularda taqdim etilayotgan til namunalari, leksik birliklar va sintaktik



tuzilmalar yosh auditoriyaning til ko'nikmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ixtisoslashgan va ko'p tarmoqli media vositalari orqali uzatilayotgan nutqiy signallar, bolalar tilidagi leksik boylik va grammatik tizimning shakllanish jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Natijada raqamli media vositalar orqali yetkazilayotgan axborot matnlari bolalar til taraqqiyotining lingvistik landshaftida alohida o'rin egallaydi. Nutq madaniyatining turlari bir nechta olimlar tomonidan turli guruhlar bo'yicha tavsiflandi, quyida ulardan biri A. Safyanova tomonidan tuzilgan variantini keltiramiz.

Nutq madaniyati turlari (A. Safyanova tasnifi bo'yicha¹)

“Nutq madaniyatini ng turi”	“Kim qo‘llaydi?”	“Tavsif”
“tanlanganlar qatlamiga xos”	“Nutq uslubi egalari odatda gumanitar yo‘nalishdagi oliy ma‘lumotga ega”	Standart nutq madaniyati, bu tilning barcha imkoniyatlarini, shu jumladan ijodiy foydalanishni erkin o‘zlashtirishni anglatadi
“Adabiy”	Til egasining oliy, o‘rta yoki o‘rta maxsus ma‘lumoti	maktabda o‘rganilgan adabiy nutqning asosiy me'yorlariga rioya qilish; og‘zaki nutqning asosiy uslublarini egallash; og‘zaki va yozma nutq madaniyatini taxminan teng darajada egallash
"O‘rta adabiy"	“Ma‘lumotli shahar aholisining aksariyati bu nutq madaniyatining tashuvchisi”	Me'yorlarga to‘liq rioya qilmaslik, nutqning kitobiy yoki so‘zlashuv so‘zlari bilan haddan tashqari to‘yinganligi bilan tavsiflanadi.

¹ Сафьянова А. Речевая культура. 2022. – P. 20– 37. Available at: <https://grammatika-rus.ru/rechevaya-kultura/> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

Adabiy-so'zlashuv uslubi	faqat suhbat uslubiga ega bo'lgan kommunikatorlarni birlashtiradi	nutqning umumiy stilistik pastligi va qo'polligi bilan ajralib turadi, bu esa uni so'zlashuv nutqiga yaqinlashtiradi. "Siz" suhbatdoshning yoshi va u bilan tanishlik darajasidan qat'i nazar, manzil sifatida ishlatiladi.
"Sodda og'zaki va jargon aralash nutq"	umumiy ta'limning past darajasi	muloqot va madaniyatda faqat o'z muhitiga yo'naltirilganlik; og'zaki muloqotning faqat so'zlashuv uslubini o'zlashtirish

Yuqorida keltirilganidek, olim A. Safyanova tasnifida nutq madaniyatining turlari ijtimoiy tabaqa, bilim darajasi va kommunikativ ehtiyojlar bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqib aytamizki, nutq madaniyati yuqori darajadan (tanlanganlar qatlamiga xos standart madaniyat) boshlab, eng sodda va tor doiraga xos (jargon va oddiy og'zaki nutq) darajagacha bo'lgan shakllarda namoyon bo'lishligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tanlanganlar qatlamiga xos nutq imkoniyatlari eng to'liq va ijodiy ravishda qo'llaniladi. Bunda asosan ijtimoiy sohada chuqur bilimga ega shaxslar vakillik qiladi. Mazkur daraja tilning nafaqat me'yoriy, balki badiiy, obrazli imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

Adabiy nutq qatlami keng tarqalgan shakl bo'lib, oliy, o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega shaxslar tomonidan qo'llanadi. Asosan maktabda o'rgatilgan adabiy nutq me'yorlariga tayangan holda, og'zaki va yozma nutqni muvozanatli qo'llash bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Keyingi o'rta adabiy nutq qatlami shahar aholisi orasida keng tarqalgan bo'lib, bu nutq me'yorlarga qisman rioya qilgan holda, ko'pincha kitobiy yoki oddiy so'zlashuv elementlari bilan to'yinganligi sababli uslubiy jihatdan barqaror hisoblanmaydi. Adabiy-so'zlashuv nutqida ko'proq suhbat tarzida muloqot qiluvchi shaxslar nutqida namoyon bo'ladi va stilistik daraja pasayib, qo'pollik va



oddiylik kuchayadi. Shu bois, odatiy suhbatga yaqinlashadi va “siz” shakli rasmiy-hurmat ma'nosini yo'qotib, umumiy murojaat shakliga aylanadi. Sodda og'zaki va jargon aralash nutqiy qatlam past darajada ta'lim olgan shaxslar nutqiga xosdir. Bunda nutq imkoniyatlari tor muhit bilan cheklanib, faqat so'zlashuv uslubiga asoslanadi. U ko'pincha jargon, qo'pol ifodalar va tor ijtimoiy guruh nutqi bilan boyitilgan bo'ladi.

XULOSA. A. Safyanova tasnifiga asoslanib hulosa sifatida aytamizki, nutqiy madaniyati shaxsning ijtimoiy maqomi, ta'lim darajasi va madaniy muhitidan bevosita ta'sirlanadi. Til me'yorlariga eng yuqori darajada amal qiluvchi nutq shakllari jamiyatda madaniy yetakchilik qiluvchi qatlamga mansub bo'lsa, me'yorlardan chekinadigan va jargonlarga boy nutq asosan past ijtimoiy guruh vakillariga xos bo'ladi. Shu boisdan, nutq madaniyati darajalari nafaqat tilshunoslik hodisasi, balki ijtimoiy ko'rsatkich sifatida ham namoyon bo'ladi. Shaxs nutqining sifati uning bilim saviyasi, nutqiy muloqot muhiti va ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat jamiyatda madaniy tafovutlarning til orqali qanday ifodalanishini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Сафьянова А. Речевая культура. 2022. – P. 20– 37. Available at: <https://grammatika-rus.ru/rechevaya-kultura/> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]
1. Anderson, D. R., & Kirkorian, H. L. Media and young children's learning. In M. Bornstein, T. Leventhal, & R. Lerner (Eds.), Handbook of Child Psychology and Developmental Science (7th ed., Vol. 4, 2015. – Pp. 1–45). Wiley.
2. Bruner, J. Child's Talk: Learning to Use Language. Oxford: Oxford University Press.1985. – P. 36
3. Pagani, L. S., Fitzpatrick, C., Barnett, T. A., & Dubow, E. Prospective associations between early childhood television exposure and academic, psychosocial, and physical well-being by middle childhood. Archives of Pediatrics & Adolescent Medicine, 167(9), 2013. – Pp. 816–822.



4. Madigan, S., McArthur, B. A., Anhorn, C., Eirich, R., & Christakis, D. A. Associations between screen use and child language skills: A systematic review and meta-analysis. *JAMA Pediatrics*, 174(7), 2020. – Pp. 665–675. <https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2020.0327> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

5. Jing, M. Vocabulary learning and development: A meta-analysis. *Child Development*.
To'liq maqola Wiley platformasida mavjud: 2023.

6. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/cdev.13927> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

7. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8905397/?utm_source
[Murojaat sana: 04.09.2025]

8. <https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2013.122> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

